

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3-avgustdagi «2023-2026 yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi PQ-260-son qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan «Yo‘l xaritasi»ning 11-bandi ijrosini ta‘minlash hamda dual ta‘limni joriy etish mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha Obuda universiteti tajribasini o‘rganish maqsadida Vengriya davlatiga xizmat safari bo‘yicha HISOBOT

Oliy ta‘lim muassasalarida dual ta‘limni joriy etish mexanizmlarini joriy etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3-avgustdagi «2023-2026 yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-260-son qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan «Yo‘l xaritasi»ning 11-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida 2023-yil 20-26 noyabr kunlari Vengriyaning Obuda universiteti hamda Debretsen universitetlariga tashrif buyurildi.

21-noyabr kuni Obuda universitetining Székesfehérvár shahrida joylashgan Alba Regia texnika fakultetida “VR, AVR lab”, “Sanoat 4.0”, “Robototexnika” va “Dron” laboratoriyalari ochilishida ishtirok etildi.





Kunning ikkinchi qismida Obuda universiteti bilan hamkor korxonalaridan biri bo'lgan "Videoton" kompaniyasiga tashrif buyurildi va joriy qilingan dual ta'lim holati, dual ta'lim tizimining afzalliklari haqidagi taqdimot treningida qatnashildi.

22-noyabr kuni Obuda universitetining Budapesht shahrida joylashgan Jon Fon Neyman nomidagi Informatika fakultetida "Kiberxavfsizlik", "AR/VR/XR" laboratoriyalariga tashrif buyurildi. Ushbu laboratoriyalarda dual va an'anaviy ta'lim talabalari hamda ularning rahbarlari tomonidan tayyorlangan "HoloLens 2", "PlatpOUs VR", "VR Robot" hamda tibbiy patologiyalarni aniqlashga qaratilgan "PathoVR" taqdimotlarida qatnashildi.





Shuningdek, fakultet tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan pandemiya va dala sharoitida bemorlar uchun kislorod bilan ta'minlaydigan "Massventil" ko'chma vintelyatsion tizimi loyihasi taqdimotida qatnashildi.



22-noyabr kunning ikkinchi yarmida Obuda universitetining Banki Donat nomidagi Mexanika va xavfsizlik muhandisligi fakultetiga tashrif buyurildi. Tashrif davomida dual va an'anaviy ta'lim shakli talabalari tomonidan tayyorlangan "Formula Student" hamda "Pnevmobil" avtomobillari taqdimotida qatnashildi.




Ushbu fakultetda joylashgan "IoT lab" laboratoriyasi ochilishida ham ishtirok etildi. Ushbu laboratoriyalarda qutqaruv amaliyotlari mo'ljallangan mobil robotlar, daltonizm kasalligi uchun noqat'iy qaror qabul qilish tizimlari, bulutli texnologiyalar asosida boshqarish qurilmalari kabi ishlanmalar taqdim etildi.





23-noyabr kuni Alba Regia texnika fakulteti dekan o‘rinbosari Monika Pogátsnik tomonidan dual ta’lim konsepsiyasi, dual ta’limni oliy ta’lim-ishlab chiqarish korxonasi hamkorligida joriy etish mexanizmlari, dual ta’limga talabalarni qabul qilish bosqichlari va erishilgan natijalar bo‘yicha taqdimot qilindi.



24-25 noyabr kunlari esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3-avgustdagi «2023-2026 yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi PQ-260-son qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan «Yo‘l xaritasi»ning 11-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida

Debretsen universitetining Mad akademiyasiga tashrif buyurildi. Mad akademiyasi mahalliy hududda joylashgan vinochilikga ixtisoslashgan korxonalar bilan hamkorlikda ishlab keladigan, korxonalaridagi muammolar bo'yicha tadqiqotlar olib boradigan muassasa bo'lib, o'zida vino, uzum, tok namunalari tekshirish hamda hudud meteorologik holatini monitoring qilish vazifalarini bajaradi.



Shuningdek, "Royal Tokai", "Holdvölgy" va shu kabi bir nechta vinochilik korxonalariga tashrif buyurilib, vino ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishildi. Shuningdek, talabalar amaliyoti, magistr va doktorantlarning stajirovkasi kabi masalalar bo'yicha kelishuvlarga erishildi.





**IAB kafedrasi
katta o'qituvchisi**

Z.S. To'raqulov

**“Enologiya va umumiy ovqatlanishni
tashkil etish” kafedrasi mudiri**

A.X. Boboyev